

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


27 oktabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-27 oktabr, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda



UzSQB

NBU

Ipoteka bank




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,502% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,477% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,408% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,266% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,260% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 9,903% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarildi va 42,618% ni tashkil etdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,12-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,16% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,24% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,072% (3 oylik) va 2,104% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **1129,2** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **36,4** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 060** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 117** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **6,10%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




27.10.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Poytaxt bank**da qayd etilgan – **12 110** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 120–12 175** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Agrobank**da qayd etilgan – **12 070** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 060 –12 000** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




➤ Qisqa muddatli kurs tebranishlari

2025-yil 20–24-oktabr kunlari oralg'ida AQSh dollari kursi Rossiya rubli bilan nisbatan mo'tadil tebranishlarni ko'rsatdi — 81,4 dan 82,5 rublgacha bo'lgan oraliqda. Bu holat valyuta bozorining qisqa muddatli barqarorligini ifodalaydi. Eng yuqori kurs 23-oktabr kuni (82,5 rubl) qayd etildi, shundan so'ng rubl 81,6 rublgacha mustahkamlandi. Tahlil qilingan davrda o'rtacha kurs 81,8 rublni tashkil etdi.

Shunday qilib, rubl nisbiy barqarorlikni saqlab qolmoqda, biroq tashqi iqtisodiy omillar, eksport qilinadigan tovarlar narxlari va valyutaga bo'lgan talab ta'sirida qisqa muddatli tebranishlar yuz berishi mumkin.

RUB-YUAN dinamikasi




➤ Rublning yuan nisbatan barqarorligi

2025-yil 20–24-oktabr kunlari oralg'ida rublning Xitoy yuani kursiga nisbatan tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya valyutasi yuan oldida nisbatan barqarorlikni namoyon etmoqda. Besh kun davomida kurs tor oraliqda — 1 yuan uchun 11,1 dan 11,4 rublgacha — tebrandi. Bu esa valyuta bozorining muvozanatli holatda ekanini va qisqa muddatli mo'tadil tebranishlarni ifodalaydi.

Umuman olganda, kurs dinamikasi Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo hamda iqtisodiy munosabatlarning barqarorligidan dalolat beradi. Shu tariqa, rubl o'z barqarorligini saqlab qolmoqda va Xitoy bilan xalqaro hisob-kitoblarda ishonchli to'lov va jamg'arma vositasi sifatida o'z funksiyasini bajarmoqda.

EUR-USD dinamikasi




➤ Yevroning dollarga nisbatan barqarorligi

2025-yil 20–24-oktabr kunlari oralg'ida yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi nisbatan barqaror bo'lib qoldi — 1,162 dan 1,1675 gacha tebrandi. Haftaning boshidan boshlab yevro asta-sekin pasayib, eng past ko'rsatkich — 1,162 darajasigacha tushdi, biroq 24-oktabrga kelib kurs biroz tiklanib, 1,1647 ga yetdi.

Mazkur tebranishlar qisqa muddatli bo'lib, bozorning past volatilligini aks ettiradi. Bu esa valyuta kursining barqarorligi va bashorat qilinadigan xususiyatini ko'rsatib turibdi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)




➤ Oltin eng keskin pasayishni boshdan kechirdi

Savdo ma'lumotlariga ko'ra, 21-oktabr kuni zudlik bilan yetkazib beriladigan oltinning spot narxi bir untsiya uchun 4123,8 AQSh dollarigacha tushdi. Atigi bir kun avval, ya'ni 20-oktabrda, oltin tarixiy rekordni yangilab, 4355,5 dollar darajasiga yetgan edi.

So'nggi paytlarda oltin narxi jadal o'sib kelayotgan edi, biroq texnik ko'rsatkichlar uning haddan tashqari sotib olinganini (ya'ni "overbought" holatini) ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, AQSh dollarining mustahkamlanishi ham qimmatbaho metalning narxiga salbiy ta'sir ko'rsatdi — dollar kursining o'sishi tufayli AQSh valyutasida belgilangan oltin boshqa valyutalarda hisob-kitob qiluvchi xaridorlar uchun yanada qimmatlashdi.

Shuningdek, investorlarning oltin kabi "xavfsiz boshpana" aktivlariga bo'lgan talabi ham pasaydi. Bunga sabab — AQSh prezidenti Donald Tramp va Xitoy rahbari Si Zinpinning kelasi hafta Janubiy Koreyada savdo kelishmovchiliklarini muhokama qilish uchun uchrashuv o'tkazishi hamda Hindistonda oltin xaridlarining mavsumiy faollik davri yakunlangani bo'ldi.

Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)




➤ Brent nefti o'sish bosqichiga o'tdi va bir barrel uchun \$65,94 darajasida turibdi

Narxlar ikki haftalik eng yuqori darajada mustahkamlanib, iyun boshidan beri eng kuchli haftalik o'sishga yo'l olmoqda. Bunga AQShning Rossiya neft kompaniyalariga qarshi yangi sanksiyalar joriy etishi ortidan yetkazib berish hajmining qisqarishidan xavotirlar sabab bo'lmoqda.

Vashington "Rosneft" va "Lukoil" kompaniyalarini qora ro'yxatga kiritib, Moskvaga nisbatan bosimni kuchaytirdi. Mazkur kompaniyalar Rossiya neft eksportining qariyb yarmiga to'g'ri keladi hamda mamlakat byudjetining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Sanksiyalar e'lon qilingach, Xitoyning davlatga qarashli neft kompaniyalari Rossiya neftini dengiz orqali xarid qilishni to'xtatdi, Hindistonning neftni qayta ishlovchi korxonalari esa import hajmini qisqartirish rejalari haqida ma'lum qildi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi ham Rossiyaning energetika infratuzilmasiga qaratilgan yangi cheklavlarni joriy etdi

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Yevropada gaz narxlarini pasaymoqda

2025-yil 20–24-oktabr kunlari davomida TTF gaz fyucherslari narxlarini tor oraliqda — har bir megavatt-soat uchun 36,6 dan 37,6 AQSh dollarigacha — tebrandi va nisbatan barqaror holatda qoldi.

Hafta o'rtalarida narxlar 37,6 dollargacha ko'tarilgan bo'lsa-da, 21-oktabrdan keyin bozor korrektsiya bosqichiga o'tdi: 24-oktabrga kelib gaz narxi 37,3 dollargacha pasaydi. Tahlil qilinayotgan davr uchun o'rtacha narx 37,2 dollar/megavatt-soat atrofida shakllandi.

So'nggi kunlardagi dinamikaga ko'ra, bozor mo'tadil tebranishlar va muvozanatli holat bilan tavsiflanmoqda — o'sish yoki pasayishning aniq yo'nalishsiz, barqaror talab va taklif fonida.

Yangiliklar

Revolut Hindistonda UPI integratsiyasi bilan xizmatini ishga tushirdi

Revolut kompaniyasi Hindistonda o'z xizmatini rasmiy ravishda ishga tushirdi va mamlakatdagi Unified Payments Interface (UPI) — real vaqt rejimidagi to'lov tizimi bilan integratsiyalashdi.

Kompaniya 2030-yilga qadar Hindistonda 20 million foydalanuvchini jalb etishni maqsad qilgan bo'lib, bu orqali raqamli to'lovlar eng tez o'sayotgan bozorlaridan birida o'z ishtirokini kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Central Asia Fintech Summit 2025: moliya sektori va fintex kompaniyalari raqamli transformatsiya loyihalarini muhokama qiladi

CAFS 2025 sammiti 13–14-noyabr kunlari Olmaotada (Almaty) bo'lib o'tadi va u mintaqadagi moliyaviy texnologiyalar sohasidagi tendensiyalar hamda chaqiriqlarni muhokama qilish uchun asosiy platformaga aylanadi.

Dastur doirasida plenar sessiyalar, panel muhokamalari, ekspertlar ishtirokidagi davra suhbatlari, shuningdek, raqamli moliya sohasidagi innovatsion yechimlar taqdimotlari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Turkiya: Fintex sohasiga rekord darajadagi investitsiyalar

2025-yilda Turkiyaning fintex sektori rekord miqdordagi — 201,3 million AQSh dollari hajmidagi investitsiyalarni jalb qildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilgi umumiy investitsiya hajmidan ham yuqori. Kapital jalb etishda yetakchi kompaniyalar orasida Midas (\$80 mln), Sipay (\$78 mln), Fimple (\$12 mln), Goldtag (\$10 mln) va Valenspara (\$8,1 mln) bor. Mazkur investitsiyalar mamlakatda raqamli moliyaviy yechimlarga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini yaqqol ko'rsatmoqda.

Santander Openbank va Yevropadagi iste'mol moliyasi bo'linmasini birlashtirdi

Santander kompaniyasi raqamli bank Openbankni va Yevropadagi iste'mol moliyasi bo'linmasini birlashtirib, ularni Openbank brendi ostida faoliyat yuritishga boshladi. Birinchi bozor sifatida Germaniya tanlandi.

Bu qadam raqamli banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va xalqaro kompaniyalar Germaniya bozorida bank xizmatlarini qanday transformatsiya qilayotganini yaqqol ko'rsatadi.